

## ZULLISONAYN SHOIR ALEKSANDR ARKADAYEVICH FAYNBERG XOTIRASIGA

**Eshonova Saidzaynuraposhsha Shukurullo qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Angren fakulteti ingliz filologiyasi 1- bosqich talabasi


**Annotasiya:** Ushbu maqola Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishga bag'ishlangan. Unda shoirning adabiy merosi, poetik qarashlari hamda o'zbek va rus adabiyotidagi o'rni tahliliy jihatdan ko'rib chiqiladi. Maqolada Faynberg she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, uslubiy o'ziga xosligi, shuningdek uning tarjimonlik va ssenariyavislik faoliyati haqida ma'lumot beriladi. Shoirning asarlari hamda ular haqidagi ilmiy-adabiy manbalar asosida uning ijodining muhim jihatlari yoritilib, adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi baholanadi. Mazkur maqola Faynberg ijodining ahamiyatini ochib berishga va uning adabiy merosini kengroq anglashga xizmat qiladi.


**Kalit so'zlar:** adabiy meros, ssenariyavislik, poetik yondashuv, tarjimonlik, badiiy xususiyatlar, she'riyat

**Аннотация:** Данная статья посвящена жизни и творческой деятельности Александра Файнберга. В ней анализируется литературное наследие поэта, его поэтические взгляды и место в узбекской и русской литературе. В статье представлены сведения об идеологических и художественных особенностях поэзии Файнберга, её стилистическом уникальности, а также о его переводческой и сценарной деятельности. На основе произведений поэта и научных и литературных источников о них освещаются важные аспекты его творчества и оценивается его вклад в развитие литературы. Данная статья призвана раскрыть значимость творчества Файнберга и способствовать более широкому пониманию его литературного наследия.

**Ключевые слова:** литературное наследие, сценарное мастерство, поэтический подход, перевод, художественные особенности, поэзия

**Abstract:** This article is devoted to the life and creative activity of Alexander Feinberg. It analyzes the poet's literary heritage, poetic views, and his place in Uzbek and Russian literature. The article provides information about the ideological and artistic features of Feinberg's poetry, its stylistic uniqueness, as well as his translation and screenwriting activities. Based on the poet's works and scientific and literary sources about them, important aspects of his work are highlighted and his contribution to the development of literature is assessed. This article serves to reveal the significance of Feinberg's work and to provide a broader understanding of his literary heritage.






**Keywords:** literary heritage, screenwriting, poetic approach, translation, artistic features, poetry


## **Kirish:**

Adabiyot jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy hayotini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, u inson qalbidagi ezgu tuyg'ular, ruhiy kechinmalar hamda ma'naviy qadriyatlarning badiiy ifodasini namoyon etadi. Adabiy asarlar orqali inson tafakkuri, davr ruhiyati va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar o'z aksini topadi. Shu bois adabiyot nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi san'at turi, balki insoniyatning ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim vosita sifatida ham qadrlanadi. Shu jihatdan, XX asr o'zbek va rus adabiy muhitida Aleksandr Arkadevich Feynberg (1939-2009) nomi alohida o'rin egallaydi. U iste'dodli shoir, mohir tarjimon hamda ssenariy muallifi sifatida samarali ijod qilgan adiblardan biridir. Feynberg o'z asarlari orqali insoniy tuyg'ular, hayot falsafasi va zamon ruhini badiiy jihatdan teran ifodalashga intilgan. Ijodkorning faoliyati, ayniqsa, o'zbek va rus adabiyotlari o'rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tarjima va badiiy ijod orqali ikki xalq adabiy an'analari o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajargan. Shu sababli Feynberg ijodi nafaqat badiiy qiymati, balki madaniy va ma'naviy ahamiyati bilan ham alohida e'tiborga loyiqdir.

## **Asosiy qism:**

Hayoti va ta'lim yo'li: Aleksandr Arkadyevich 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Uning ota-onasi Novosibirsk shahridan Toshkentga ko'chib kelgan bo'lib, bu voqea Aleksandr tug'ilishidan ikki yil oldin sodir bo'lgan edi. Shu tariqa, oila yangi shahar hayotiga qo'shilib, Aleksandrni tarbiyalash va uni bilimli inson qilib voyaga yetkazish uchun qulay sharoit yaratdi. Shoirning otasi, Arkadiy Lvovich Faynberg (1891–1971), Gatchina shahrida tug'ilgan, texnologiya institutini tamomlagan va spirt zavodida bosh muhandis lavozimida faoliyat yuritgan. Onasi, Anastasiya Aleksandrovna (1904–?), Moskvada tug'ilgan bo'lib, xuddi shu zavodda mashinist sifatida ishlagan. Shu oilaviy muhit Aleksandrni bilimga chanqoq va ijodiy ruhga ega bo'lishiga undadi. Yetti yillik maktabni tamomlagach, u Toshkentdagi topografiya texnikumida tahsilni davom ettirdi. Kollejni bitirgach, Tojikistonda harbiy xizmatni o'tab, hayotiy tajriba orttirdi. 1965-yilda esa Toshkent universitetini bitirib, filologiya fakultetining jurnalistika bo'limida sirtqi ta'lim oldi va talabalar gazetasida faoliyat yuritdi. Shu yillarda Aleksandr o'zining ijodiy va jurnalistik qobiliyatlarini shakllantira boshladi. 1961-yilda u Inna Glebovna Koval bilan turmush qurgan va shu tariqa o'z oilasini yaratdi. Bu voqea uning shaxsiy hayotida yangi sahifa ochib, ijodiy izlanishlarida yanada mustahkam poydevor bo'ldi. Ijodi: Faynberg ijodining muhim qismini badiiy tarjima tashkil etadi. O'zbek she'riyatini mukammal bilgan shoir Navoiy g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan. Faynberg ssenariysi asosida "O'zbekfilm" kinostudiyasida „Mening akam“, „Jazirama oftob





tagida“, „Qandahorda toblanganlar“, „Tojikfilm“ kinostudiyasida esa „Jinoyatchi va oqlovchilar“ va boshqa filmlari suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida to‘rtta to‘liq metrajli badiiy film va 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. Aleksandr O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi bo‘lgan va o‘n besh she‘riy to‘plam (shu jumladan, vafotidan keyin nashr qilingan ikki jildlik asar ham) muallifi sifatida tanilgan. Uning she‘rlari “Smena”, “Yoshlik”, “Yangi dunyo”, “Sharq yulduzi”, “Yangi Volga” kabi jurnallarda hamda xorijiy mamlakatlarda — AQSh, Kanada, Isroilning davriy nashrlarida e‘lon qilingan.

Bu tovushni angla – qanotlar sozi,

Yerostidan to‘lqinlanib bo‘yaydi.

Sargardon qushlarning tungi parvozi

Oy nuriga bo‘zlarini iylaydi.

Erib bitmasidan ovozni ilg‘a,

Bu – biz yer tubiga sochgan baxtu g‘am.

Quchib o‘tayotir ko‘zlaring ilg‘ab,

Enayotir kuzning vidosiga ham.


Hali anglab yetmay bir – birimizni


Qish kelar, qor bosar bor sirimizni.

Madaniyatlar uyg‘unligi: Faynbergning she‘rlari o‘zining noyob uslubi bilan ajralib turadi. U asarlarida turli madaniyatlar va zamonlarni uyg‘unlashtirib, insoniy qadriyatlar va vatanga bo‘lgan mehrni chuqur ifodalaydi. Uning ijodida muloyim hazil va hissiy lirika birlashib, chuqur falsafiy mazmun bilan boyitilgan. Bir qarashda u rus yozuvchisi sifatida tasavvur qilinsa-da, qalbi bilan u o‘zbek va turoniydir. Har bir satrida vatanparvarlik va sadoqatning iliqligi seziladi. Faynberg ikki dunyo madaniyatini uyg‘un tarzda ifodalashga qodir noyob iste‘dod egasidir. Uning so‘zlari bilan tanishgan har bir o‘quvchi buni his qilishi mumkin. Aleksandr rus shoiri bo‘lishiga qaramay, uning she‘rlarida O‘zbekistonning milliy an‘ana-qadriyatlari, urf odatlari hamda tabiat manzaralarini samimiy ruhda yoritgan.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda Aleksandr Arkadyevich Faynbergning ijodi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning she‘rlari turli madaniyatlar va zamonlarni uyg‘unlashtirib, insoniy qadriyatlar, vatanga sadoqat va hissiy chuqurlikni ifodalaydi. Hazil, lirika va falsafiy mulohazalar





bir-birini boyitib, asarlarga noyob ijodiy ohang bag'ishlaydi. Faynberg nafaqat milliy o'quvchi uchun, balki xorijiy mutolaachilar uchun ham madaniyatlara muloqot va ijodiy almashinuv timsoli hisoblanadi. Har bir misrada vatanga bo'lgan muhabbat va milliy qadriyatlarni his qilish mumkin, shu bilan birga, uning qalamidan chiqqan satrlar turli madaniyatlarni bog'laydigan ko'prik vazifasini bajaradi. Shunday qilib, Faynbergning she'riyati nafaqat estetik zavq beradi, balki o'quvchini insoniy va vatanparvarlik qadriyatlarini anglashga chorlaydi, tarix va madaniyat uyg'unligining namunasini taqdim etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faynberg A.A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
2. Faynberg A.A. Chig'ir. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2007.
3. Faynberg A.A. Izbrannye stixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
4. Ivanova E. Faynberg: A Literary Biography. – Toshkent: O'zbekiston adabiyot matbuoti, 2005.
5. Karimov N. Zamonaviy o'zbek adabiyoti poetikasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012.

